Bizga ma'lum bo'ladiki olimga Navoiy ijodini anglash qiyinchilik tug'dirmagan. Filologiya fanlari doktori, professor Suyima G'aniyeva A.Rustamov haqida shunday eslaydi: Aliybeg “Mahbub ul-qulub” haqida har suhbatda bir yangilik aytar edi. Tilga oidlarini ba'zan anglamas, lekin adabiyotga oid fikrlarini maroqlanib eshitar edik. Hamfikir do'st, yaxshi suhbatdosh edik. To'y, tug'ilgan kunlarda birga, musibatlarda dardkash bo'lganmiz. U kamgap edi. Lekin meni

<sup>10</sup> Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – B. 128.





Yangiyo‘lga olib borganda, uyi va yaqinlarini ko‘rsatganda sergap bo‘lganidan zavqlanganman. A. Rustamiy Navoiy tili bo‘yicha ancha ishlar qildi. Nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi. “O‘zbek adabiyoti tarixi”ga hammualliflikda maqola yozdik. Hamkorligimizning yoddan chiqmas natijasi — rus tilida “История узбекской литературы” uchun mazkur qismni rus tiliga o‘g‘irganimda menga yaqindan yordam qildi. 1957-yildan beri muntazam o‘tkazib kelinayotgan Navoiy anjumanlariga Aliybeg kelar edi (1962-yil, 6-konferensiya, 1964-yil, 8-konferensiya, 1965-yil, 9-konferensiya, 1970-yil, 14-konferensiya, 1971-yil, 15-konferensiya, 1974-yil, 18 konferensiya va boshqalar)<sup>11</sup>.

Rustamiy ilmiy kitoblar yozishdan tashqari xalqimiz ma‘naviyati, o‘zligi, tobora yo‘qolib borayotgan ma‘naviy qadriyatlarga ham bee‘tibor emasdi. Xalqimiz o‘zligini va ma‘naviy qadriyatlarini teran anglab yetishi kerakligini, jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligini ta‘kidlaydi. Olim bu yo‘lda ham bir qator ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, “Shifo duosi” (1992), “Bismillohning ma‘nosi” (1993), “Rustamiy tafsiri. Fotiha surasi” (2004), “Hazrat-i Navoiyning e‘tiqodi” (2010), “Hazrat-i Navoiyning “mast-i alast I” (2012), “Hazrat-i Navoiyning ma‘naviy va suvuriy sharoblari” (2013), “Hazrat-i Navoiyning ma‘naviy olami” (2014) kabi risolalar, “So‘z gavhari. “Basmala”, “til”, “adab”, “odob” so‘zlari” (2002), “Hazratning diyonati” (2011), “Masnaviy-i ma‘naviy”dagi “nay”u “nayiston”ga Jomiyning sharhi” (2007) kabi maqolalar hamda ukalari Botirbek, Karimbek, Saidbek Hasanovlar bilan hamkorlikda tayyorlagan “Alisher Navoiy. Arba‘iy” (1991, “Husayn Boyqaro” (1991), “Alisher Navoiy. Siroju-l-muslimiyn” (1993), “Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (1993), “Nuri Muhammadiy va Nurnoma” (1996) risolalaridir. Olim keng ilmiy faoliyati bilan o‘ziga xos ilmiy maktab yaratgan edi.

Adabiyotshunoslik fani tarixida turli ilmiy maktablar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati o‘sha maktab asoschisi nomi bilan (akademik Konrad maktabi)

---

<sup>11</sup> Aliybeg Rustamiy xotirasi: Odamiylik va olimlik fazilatlarini mujassam inson mas‘ul muharrir A.Samad. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014.







yoki o‘z yo‘nalishi bilan (Struktural poetika maktabi) kabi nomlanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida ham Fitratning adabiyotshunoslik maktabi, Xodi Zarif folklorshunoslik maktabi mavjud bo‘lgani har bir mutaxassisga ma‘lum. Shuningdek, XX asr adabiyotshunosligida ayrim sohalar bo‘yicha Izzat Sulton nomi bilan bog‘liq nazariya maktabi, Ozod Sharafiddinov tanqidchilik maktabi, G‘ulom Karimov va Aziz Qayumov nomlari bilan bog‘liq mumtoz adabiyot va manbashunoslik maktablari haqida adabiyotshunoslikka doir kitoblarda fikrlar aytilgan, ayrim risola va maqolalar yaratilgan. Biroq Aliybeg Rustamiy nomi faqatgina olim yozgan ilmiy asarlardagina aks etib qolmay, balki o‘zbek tarixiy tilshunoslik, navoiyshunoslik, manbashunoslik, tarjimashunoslik kabi sohalarga taalluqligi, ustozning bu sohalarda yozgan asarlari ilmiy tizimga solinadigan bo‘lsa, uni bevosita “Akademik Aliybeg Rustamiy maktabi” umumiy nomi ostida jamlash mumkin bo‘ladi. Akademik Aliybeg Rustamiy asarlarining ilmiy tasnifini berishga jur‘at qilolmasam ham, o‘z faoliyatim doirasida domla yaratgan asarlar mutolaasi bilan bogliq fikrlarim bilan o‘rtoqlashishim mumkin<sup>12</sup>

Xulosa sifatida aytish mumkinki, olim filologiya fanning qaysi sohasiga oid tadqiqot qilsa, ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi. Olim uzoq yillik faoliyati bilan o‘z ilmiy maktabini yaratdi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alibeg Rustamiy xotirasi: Odamiylik va olimlik fazilatlarini mujassam inson: (xotiralar) / mas‘ul muharrir A. Samad. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014.
2. Navoiyning badiiy mahorati: (badiiy adabiyot) / A. Rustamov. – Toshkent : Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979.
3. Forscha-o‘zbekcha o‘quv lug‘ati: (pedagogika in-t studentlari uchun o‘quv qo‘ll.) / A. Rustamov, K. Karimov, Z. Umarov. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975.

---

<sup>12</sup> O‘sha asar -108 bet





4. “Xamsa” va o‘zbek adabiy tili : [Alisher Navoiyning bebaho “Xamsa”si o‘zbek adabiy tilining yangi tub so‘zlar bilan boyitganligi haqida] / A. Rustamov // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 1986.





**SURXONDARYODA VILOYATIDA UCHRAYDIGAN  
ZULUKLARNING BIOEKOLOGIYASI**

**Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani**

**Muzrabot 33-maktab**

**Biologiya fani o`qituvchisi**

**Raimova Feruza**

**Annotatsiya:** Keyingi yillarda parazitologiya fani xalq xo'jaligining turli tarmoqlarining tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada Surxondaryoda viloyatida uchraydigan zuluklarning bioekologiyasi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** zuluklar, silindrsimon, parazit zuluklar, turkiston zuluklar, qon aylanish sistemasi, qon tomirlari devori epiteliysi, gematofag.

Ma'lumki, zuluklar halqali chuvalchanglar tipiga mansub bo'lib, tanasining uzunligi bir necha sm dan 15 sm gacha, ba'zan undan ham uzunroq. Tanasi orqa va qorin tomondan yassilashgan, ba'zan silindrsimon, 33 ta tashqi hal-qadan iborat. Zuluklar tanasining tashqi halqalari soni ichki halqalari soniga teng bo'lmaydi, odatda, har bir ichki halqaga 3—5 ta tashqi (ikkilamchi) halqa to'g'ri keladi. 400 ga yaqin turi chuchuk suv havzalari va dengizlarda tarqalgan. Surxondaryoda viloyatida uchraydigan zuluklarning 2 so'rg'ichi bo'lib, ulardan biri tanasining oldingi, ikkinchisi keyingi qismida joylashgan. Og'iz teshigi so'rg'ich yoki hartum bilan o'ralgan. Zuluklar yirtqich yoki parazit hayot kechiradi. Yirtqich zuluklar mayda umurtqasiz hayvonlar bilan oziqlanadi, parazit zuluklar turli umurtqali hayvonlar va odam qonini so'radi. Jag'li zuluklar ichagining yon tomonidagi juda keng xaltalariga ko'p qon so'rib oladi. Zuluklar so'lagi tarkibidagi girudin qonni ivitmaydi. Ular terisi orqali nafas oladi. Ayirish sistemasi — metanefridiyalar. Jag'li zulukning qon aylanish sistemasi qon tomirlari devori epiteliysi bo'lmasligi bilan





boshqa halqali chuvalchablardan farq qiladi, qon tomiri tana bo'shlig'i qoldig'idan hosil bo'ladi. Zuluklar germafrodit, urug'langan tuxumlarini pilla ichiga qo'yadi. Lichinkasi pilla ichida o'zgarishsiz rivojlanadi. Surxondaryoda viloyatida uchraydigan zuluklar hartumli va jag'li turkumlariga bo'linadi.

Tibbiyotda zuluklardan tromb hosil bo'lishi bilan bog'liq qon tomirlari kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Tibbiyotda foydalanish maqsadida zuluklar maxsus zavodlarda ko'paytiriladi. Ayrim zuluklar baliqlarga jiddiy zarar yetkazadi. O'rta Osiyo suv havzalarida chig'anoqli zuluklar, soxta ot zuluklar, turkiston zuluklari uchraydi. Seylon va Zond arxipelagi tropik o'rmonlarida quruklikda yashovchi zuluklar odam va sut emizuvchilar qonini so'radi. Zuluklar sinfiga, asosan, hayvonlarning qonini surib ektoparazitlik qiladigan yoki yirtqich hayot kechiradigan halqali chuvalchablarga kiradi. Ular dengiz, chuchuk suv, ba'zan quruqlikda yashaydi. 400 ga yaqin turi ma'lum. Yashash muhiti zuluklarning tashqi va ichki tuzilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Zuluklarning aksariyati chuchuk suv muhitida yashaydi, ammo ba'zilari sho'r suv muhitida, ba'zilari esa nam quruqlik muhitida yashashi mumkin. Ular germafroditlar bo'lib, ikkala jinsiy a'zoga ham ega, ammo ular tirik nasl berish uchun o'zlarining boshqa turlari bilan o'zaro urug'lantirishlari kerak. Ikki zuluk bir-biriga sperma yuboradi. Olingan urug'lantirilgan tuxumlar shilimshiq pillada saqlanadi, ular tananing pastki qismiga birlashtirilishi yoki atrof-muhitga joylashtirilishi mumkin. Zuluklar ilonga o'xshab to'lqinsimon shaklda suzish yoki so'rg'ichlarini chuvalchangsimon shaklda yopishtirish va qayta birlashtirish orqali aylanib yuradi. Zuluklarning aksariyat turlari uchun oziq-ovqat boshqa hayvonlarning qonidir; ular "gematofag" dir.

Qon so'ruvchi zuluklar pistirma yirtqichlari bo'lib, ular kattaroq hayvonlarning suzib o'tishini kutadilar yoki quruqlikdagi turlarga yaqinlashib, keyin o'z o'ljalarini ushlaydilar. Og'izdagi o'tkir pichoqlar yoki tumshug'lar yaradagi hislarni keltirib chiqaradigan antikoagulyantlar va anestetiklar yordamida qon oqib o'tadigan teshikni kesib tashlaydi. Sulukning og'irligidan bir necha





baravar ko'p bo'lgan katta hajmdagi qon, ovqat hazm qilish boshlanishidan oldin hosilda (oziq-ovqat kanalining kengayishi) saqlanishi mumkin. Zuluk hosilini qonga to'ldirgandan so'ng, so'rg'ichlarini chiqaradi va tushadi. Katta qonli ovqat zulukni ko'p oylar ovqatsiz yashashda davom ettirishi mumkin. Ba'zi zuluk turlari o'ljasining boshqa to'qimalarini iste'mol qiladi, ba'zilari o'lik hayvonlar bilan oziqlanadi va ba'zilari mayda umurtqasizlarni butunlay yutadi. Boshqa ko'plab hayvonlar zulukdan taom tayyorlaydilar: baliqlar, toshbaqalar, qirg'oq qushlari, chuvalchanglar va boshqalar.

Suluklarning o'ziga xos xususiyati yo'q, ular faqat oziq-ovqat zanjirining bir qismidir. Zulukni odamning istalmagan joyidan olib tashlashning to'g'ri usuli - tirnoq yoki boshqa o'tkir qirrani bosh uchi so'rg'ichining ostiga surtishdir. Bu zulukning jag'larini tortib olishiga olib keladi. Bosh uchidagi so'rg'ich qo'yib yuborilganda, zulukni butunlay sug'urib oling va u sizga yana yopishib olish imkoniyatiga ega bo'lguncha uni tezda silkitib tashlang. Zulukning keng tarqalgan Yevropa turi bir vaqtlar qon quyish uchun tibbiyotda keng qo'llanilgan.

Umuman olganda, shubhali amaliyot bo'lsa-da, zamonaviy tibbiyot zuluklar uchun qimmatli foydalanishni topdi. Jarrohlik yo'li bilan ta'mirlash yoki tananing ayrim qismlarini qayta biriktirishda va teri transplantatsiyasida venoz qon oqimi ko'pincha birinchi navbatda yomon bo'ladi. Zuluklar to'qimalarda to'plangan ortiqcha qonni yangi tomirlar va kapillyarlar qayta tiklanmaguncha olib tashlash uchun ishlatiladi. Zuluklar oziqlanayotganda ishlab chiqaradigan tabiiy antikoagulyant, shuningdek, shikastlangan hududlarga zarba oqimining yo'qolishiga olib keladigan qon ivishining oldini olishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Norxo'jayev B, Xolmamatov Sh. Zuluklarning tuzilishi va tibbiyotdagi ahamiyati. Toshkent. 2022.
2. Mavlonov O., Xurramov Sh., Umurtqasizlar zoologiyasi, Toshkent. 1995.





3. Zuluklarning biologiyasi. naturenorth.com





**MULTFILMLAR BOLANING RUHIYATIGA QANDAY  
TA'SIR QILADI?**

**Sobirova Shohida**

**Samarqand davlat chet tillari instituti ingliz II fakulteti**

**2- bosqich talabasi**

Inson hayotidagi eng ajoyib vaqt - bu bolalikdir . U albatta multfilmlar bilan bog'liq . Chunki ularda butun bir avlod o'sadi.

Teslenko Egor

Hozirgi kunda o'zlariga bo'sh vaqt topish uchun juda ko'p zamonaviy ota – onalar farzandlarini televizo qarshisiga o'tqazib qo'yadilar.

Bolalari televizorga va unda qo'yiladigan turli – tuman multfilmlar bilan ovunganidan mamnun bo'ladilar . Bolalar ham bu multfilmlarni zavq va hayrat bilan tomosha qiladi . Lekin bu hayratning ortida nima bor ? Multfilmlar bolalarimiz uchun haqiqatdan ham foydalimi ? Bola necha yoshdan va qancha vaqt davomida multfilm tomosha qilishi mumkin? Bu ko'rilayotgan multfilmlar bolaning psixologik holatiga qanday ijobiy va salbiy ta'siri bor ? Hamma turdagi multfilmlar ham bola shaxsini rivojlantirishga hissa qo'sha oladimi ?

Mutaxasislarning takidlashicha bolalar 2,5 yoshdan boshlab faol tomoshabin bo'lashar ekan . Lekin juda ko'p ota-onalar faqat 3 yoshdan oshgan bolalargina multfilm tomosha qilishi mumkinligi haqida bilishmaydi . Ular multfilmlar bolalar uchun o'yin - kulgi ovunish vositasi deb bilishadi . Aytiz joizki , multfilm qahramonlarining ta'siri bola tarbiyasi uchun shunchalik ulkanki , uni inkor etib bo'lmaydi. Bu haqida Moskva shahar o'yin va o'yinchoqlarning psixolik va pedagogik ekspertiza markazining munofiqlashtiruvchi va





tahliliy bo'limi boshlig'i psixolog Natalya Matushkina shunday deydi: "Multfilmlarni nazoratsiz tomosha qilish bolaning ko'rish qobiliyatiga, qolaversa, ruhiyatiga, xulq – atvoriga, kayfiyatiga va oxir – oqibat uning atrofdagi dunyoni tushunish va idrok etishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ota – onalar bu ma'lumotni har doim yodda saqlashi va bolalari tomosha qilayotgan multfilmlarini nazorat qilishi kerak. Ular farzandlari uchun ma'sul ekanliklarini tushunishlari zarur. Ota - onalar doimiy televizor ko'rish va multfilmlar tomosha qilish farzandlari uchun odatga aylanib qolishi mumkinligi va keyinchalik bolalari televizordan uzoqlashi qiyin bo'lishi haqida o'ylamaydilar. Psixologlar bunday vaziyatlarda brogan sari bolaning ota - onasi, atrofida gilar bilan muloqati kamayib borishi va bu bolalar nutqining shakllanishini kechikishi, ularning talaffuzida turli xil qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishini ta'kidlashadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti talablariga ko'ra, 3 yoshga to'lmagan bolalarga multfilm tomosha qilish tavsiya etilmaydi. Bu yoshdagi ayrim bolalar multfilm tomosha qilsa, faqat multfilmga e'tibor berishadi, hatto harakat ham qilmaydi.

Kelajakda bunday bolalar nutq, ko'rish, harakatlarni muvofiqlashtirish va hatto ortiqcha vazn bilan bog'liq muammularga duch kelishadi. 3 yoshdan oshgan bolalarga esa yotishdan oldin multfilm tomosha qilmasligi tavsiya qilinadi, chunki bolalar multfilm tomosha qilgandan so'ng hayajonlanadi va uyqu bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi.

Bu bilan hamma multfilmlar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi degan fikr bundan mustasnodir. Bolalarga, ularning dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan multfilmlar ham yo'q emas. Ular orasida qiziqarli va ma'lumot beruvchilari ham juda ko'p. Ayrim multfilmlarda, multfilm qahramonlarning turli – tuman kiyinishlari,







ularning o'zini tutishi va salbiy xatti – harakatlari bolalar o'z xotiralariga muhirlaydi va xuddi o'sha xatti – harakatlarnini, ko'rganlarini o'zining xulq – atvorida takrorlashga harakat qiladilar .

Ular uchun barcha ko'rganlari haqiqiy va tirikdek tuyuladi . Xalqaro talablarga ko'ra 3- 7 yoshdagi bolalarga kuniga 30 daqiqagacha , 7 – 10 yoshdagi bolalarga kuniga 30 – 50 daqiqagacha multfilm tomosha qilish tavsiya etiladi . Undan katta bo'lgan 11 – 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga esa kuniga 1- 3 soatgacha multfilm tomosha qilishlari mumkin . Bundan tashqari bolaning ko'zi va televizor o'rtasidagi masofa 3 metrdan kam bo'lmasligi kerak .

Ota – onalarda albatta nima qilish kerak ? bolalarning multfilmlarga bo'lgan ishtiyoqiga qanday munosabat bildirish , taqiqlash yoki ruxsat berish kerakmi ? degan savollar paydo bo'ladi . Ruxsat berish kerak chunki , multfilmlar bolalikning bir bo'lagidir .Ota – onalarga multfilmlarni bola ruhiyatiga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun bir nechta oddiy qoidalar va maslahatlarga rioya qilish yordam beradi : bolalarga multfilmlarni o'zingiz saralab , tarbiyaviy multfilmlarni taklif qiling , multfilm tomosha qilish uchun vaqt belgilang va ba'zan bo'sada o'zingiz ham farzandingiz bilan birga multfilm tomosha qiling , multfilmdagi qahramonlarni va ularning xatti – harakatlarini farzandingiz bilan birga muhokama qiling . Kichkintoylaringizga eng yaxshi va sara multfilmlarni taklif qiling . Ularning yuzida butun bir his – tuyg'ular aks etayotganini ko'rasiz . Bu yerda bola qahramon bilan kuladi yig'lasa birga yig'laydi , jarohatlansa achinadi va tanish qo'shiq so'zlarini takrorlaydi Yaxshi multfilmlarni tarbiyaviy ahamiyati juda katta , ular bolalarni do'stlikka , atrofdagilarga yordam berishga , zaiflarni himoya qilishga undaydi . Shu bilan birga bolaga ko'plab qiyin vaziyatlardan chiqib ketish





yo'llarini o'rgatadi , bolalarning qo'rquvini yengishiga va o'ziga bo'lgan ishonchni shakllanishiga yozdam beradi .





BOJXONA ORGANLARI FAOLIYATINING OSHKORALIGINI  
TA'MINLASHDA AXBOROT XIZMATINING O'RNI

Aslanova Firuza Baxshilloyevna

O'zJOKU Axborot xizmati va PR yo'nalishi 2-kurs magistranti

firuzasloniva31@gmail.com

tel: +998903464950

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bojxona sohasida amalga oshirilgan <https://www.instagram.com/reel/CkyDVA9DKob/?igshid=ZmRIMzRkMDU> = so'z yuritiladi. Shuningdek, raqamli bojxona tushunchasi va uning mohiyati, shuningdek, bojxona sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bojxona ishiga bevosita samarali ta'siriga oid fikr va mulohazalar ko'rib chiqiladi.  
**Kalit so'zlar:** bojxona, islohot, axborot xizmati, OAV, maqolalar, tahlil, raqamli bojxona.

THE ROLE OF THE INFORMATION SERVICE IN ENSURING THE  
TRANSPARENCY OF THE ACTIVITIES OF CUSTOMS AUTHORITIES

2-nd year graduate student of  
UzJOKU Information service and  
PR department.

**Annotation:** This article deals with implementation in the field of customs. Also, the concept of digital customs and its essence, as well as opinions and comments on the direct and effective impact of information and communication technologies on customs work in the customs sector will be considered.





Analysis, Digital customs, Mass media, Articles, Reform, Information service, Public relations.

*“Bojxona postlari davlatimiz yuzi, birinchi taassurot shu yerdan boshlanadi.*

*Ular obod, aholi va tadbirkorlar uchun qulay bo‘lishi kerak.”*

*Shavkat Mirziyoyev.*

Bojxona tizimi mamlakatimizni jahon iqtisodiyoti bilan bog‘laydigan muhim bo‘g‘in. Bu tizim to‘g‘ri va ochiq-oshkora ishlamasa, tadbirkorlik va investitsiyalarga to‘siq bo‘ladi. Davlat bojxona qo‘mitasi faoliyatining oshkoraligini ta‘minlash, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari va keng jamoatchilikning bojxona organlarida amalga oshirilayotgan turli yo‘nalishlardagi keng qamrovli islohotlarning borishi to‘g‘risida muntazam xabardor qilish bojxona tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi yangiliklardan fuqarolarimizni boxabar qilishdek mas‘uliyatli vazifani bojxona qo‘mitasi axborot xizmati va joylardagi bo‘limlari xodimlari namunali bajarib kelmoqda.

2019-yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori qabul qilinishi ushbu yo‘nalishda yangi ishlarni boshlab berdi. Qarorda media makonda yuzaga kelayotgan hodisalarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotgani, islohotlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etish bo‘yicha sohada ishlarni sezilarli darajada oshirish zarurligi, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, OAV faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etayotgani ta‘kidlandi<sup>13</sup>.

Biroq bu bilan nafaqat OAV faoliyati uchun qulay sharoit yaratish, davlat va jamiyat o‘rtasida muloqotni yo‘lga qo‘yish, aholiga islohotlar haqida tezkor, xolis va to‘liq axborot yetkazish, balki davlat tashkilotlarining faoliyati shaffofligini

<sup>13</sup> <https://daryo.uz/2021/06/27/>





oshirish, ularning jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalari, axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilashni ham ko‘zlangan edi.

Ushbu qaror matbuot xizmatlari sohasida katta burilish yasadi, deyish mumkin. Qaror bilan axborot xizmati rahbari bir vaqtning o‘zida davlat organi rahbarining matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi maqomida bo‘lishi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi xulosasini inobatga olgan holda, lavozimga tayinlanishi belgilanib qo‘ydi. Xolislikni ta‘minlash maqsadida suhbatlarni yuqori bilim va salohiyatga ega mas‘ul mutasaddilar, tajribali va o‘z ishiga vijdonan yondashadigan soha mutaxassislaridan iborat hay‘at olib boradigan bo‘ldi. Natijada ushbu yo‘nalishga salohiyatli kadrlar saralana boshlandi.

Aytish mumkinki, jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini, mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarini bojxona organlari faoliyatiga dahldor ma'lumotlardan xabardor qilish bo‘yicha Davlat bojxona qo‘mitasi ko‘p yillik tajribaga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 25-oktyabrdagi farmoni asosida Davlat bojxona qo‘mitasi tashkil topgan bo‘lib, uning tarkibidan Ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi ya‘ni Axborot xizmati (hozirda Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi deyiladi) ham o‘rin olgan edi. Bo‘limning Nizomi va xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari so‘nggi bor 2018-yilda qayta ishlab chiqilib, tasdiqlangan<sup>14</sup>.

Bo‘limning ayni paytdagi Nizomi jamoatchilik vakillari va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini bojxona organlari faoliyatining dolzarb jihatlarini, yagona bojxona siyosatini amalga oshirish masalalari, bojxona qoidalari, tartiblari, soha bo‘yicha qabul qilinayotgan yangi me‘yoriy hujjatlar, ulardagi o‘zgarishlar, sohada ro‘y berayotgan yangilanishlar haqida o‘z vaqtida xabardor qilib borish, shu maqsadda jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan yaqindan hamkorlik

<sup>14</sup> <https://customs.uz/oz/lists/view/258>





qilish, ular bilan axborotlar almashish, ma'lumotlarni OAVda va Internet tarmog'ida yoritish, tashqi foydalanuvchilar uchun doimiy ravishda turli ma'lumotlar taqdim etishni tizimli ravishda yo'lga qo'yishga xizmat qilib kelmoqda. Bo'lim o'z faoliyatini samarali tashkil etishi uchun yetarli moddiy texnik baza bilan ta'minlangan. Shuningdek, televideniye uchun tayyor lavhalar tayyorlab berishni ta'minlovchi o'z tasvirga olish va montaj qilish texnikalariga ega. Bo'lim xodimlarining xizmat kompyuterlari yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulangan.

O'ziga yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida tashkiliy va amaliy tadbirlarni o'tkazishda Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi hududiy bojxona boshqarmalari bilan hamkorlikda qo'mita rahbariyati tomonidan tasdiqlangan rejalar asosida ishlar olib bormoqda. 2011-yilda Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bojxona boshqarmalarida, "Toshkent-Aero" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksida Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar guruhlari - Axborot xizmatlari tashkil etilgan.

2017-yilda Davlat bojxona qo'mitasining Axborot xizmati nufuzli "Oltin qalam" mukofotiga sazovor bo'lganligi uning faoliyati nechog'lik samarali tashkil etilganligini isbotlaydi.

Yurtimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bojxona xizmati xodimlari faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka tezkor va ishonchli axborot yetkazib berish ahamiyati haqida so'z borar ekan, ma'lum bir keys orqali uning amaldagi isbotini tahlil qilsak.

2018 yilda Telegram tarmog'idagi "Jurnalizd", "Davletovuz" kabi axborot kanallari va boshqa ommaviy axborot vositalarida "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash xalqni sog'ish hisobigami?" sarlavhali material e'lon qilindi. Unda chetda xarid qilingan va xalqaro pochta tizimlari orqali olib kelinayotgan tovarlarni olishda qator muammolarga duch kelinayotganligi qayd etilgan. bu esa ijtimoiy tarmoqlarda xalqaro pochta va kurerlik jo'natmalarini





qabul qilayotgan jismoniy shaxslar uchun joriy qilingan tovarlarni bojsiz olib kirish me'yorlariga nisbatan turlicha qarashlar to'qnashuvini keltirib chiqardi. Jumladan, kimdir buni ma'muriy cheklov sifatida baholasa, kimdir mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun qabul qilingan chora sifatida ta'kidladi<sup>15</sup>.

Bu vaziyatga Davlat Bojxona qo'mitasi Axborot xizmati munosabat bildirib, fuqarolarga joriy etilgan tartiblar ahamiyati haqida asoslangan ma'lumotlarni taqdim etdi. O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga jismoniy shaxslar nomiga xalqaro pochta va kurerlik jo'natmalari orqali kelayotgan tovarlar nazoratini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga muvofiq, xalqaro pochta jo'natmalarini qabul qilayotgan jismoniy shaxslar \$100 teng bo'lgan qiymatdagi tovarlar uchun boj to'lovlarini to'lamaydilar. Shuningdek, jismoniy shaxslar har chorakda bir marotaba kurerlik jo'natmalari orqali \$1 000 qiymatiga teng bo'lgan tovarlarni bojsiz qabul qilib olishlari mumkin. Ammo belgilangan tartibga amal qilmay, qiymati \$100 yuqori bo'lgan tovarning narxini asossiz ravishda pasaytirib, \$49 qilib ko'rsatish orqali, telefonni bojsiz olib kirish me'yorlarini suiste'mol qilgan holda olib kirishga bo'lgan urinish sodir etayotgan fuqolar topiladi. Ushbu holatda bojxona xodimlari mazkur \$300 telefonning bojsiz olib kirishga ruxsat etilgan \$100 chegirib tashlab, qolgan \$200 uchun belgilangan tartibda davlat byudjetiga tegishli bojxona to'lovlarini undirishgan.

"Aslida esa ushbu me'yorlar jismoniy shaxslarning manfaatlari har tomonlama inobatga olingan holda qabul qilingan deyishimiz mumkin. Chunki, jismoniy shaxsni har chorakda \$1000, yil davomida esa \$4000 teng tovarlarni o'z ehtiyoji uchun boj to'lamasdan olib kirishi yurtimizda yashayotgan har bir shaxsni chetdan sifatli va arzon tovar olishini to'liq kafolatlaydi, - deb izoh beradi Davlat Bojxona qo'mitasi matbuot xizmati<sup>16</sup>.

<sup>15</sup> <https://www.spot.uz/oz/2018/09/11/customz/>

<sup>16</sup> <https://www.spot.uz/oz/2018/09/11/customz/>





Bu misol orqali Axborot xizmati bir yoqlama fikrlayotgan insonlarga davlat hech bir qoidani shunchaki ishlab chiqmasligini, bunga amal qilishni istamay qing'ir yo'llarni ishga solib bojxonachilarni aldashga urinayotgan odamlar qonun oldida teng javob berishini ta'minlash bojxonachilar oldida turgan mas'uliyatli vazifa ekanligiga tushuncha berib o'tdi. Bu kichik holatga bir munosabat. Endi tasavvur qiling, har yili bojxona tizmini isloh qilish yo'lida qanchadan-qancha o'zgarishlar, yangiliklar sodir bo'lyapti, yangi tartiblar joriy etilmoqda. Birgina, 2019-yilda bojxona ma'muriyatchiligi isloh qilinib, bojxona postlarida soddalashtirilgan yo'laklar joriy etildi. Bugun yo'lovchilarning 95 foiz va yuklarning 75 foizi shular orqali o'tmoqda. Ilgari 12 ta idoradan olingan 60 turdagi ruxsatnomalar "yagona darcha" orqali elektron shaklga o'tkazildi. Bularning natijasida bojxonada yuklarni rasmiylashtirish vaqti 10 barobargacha qisqardi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida eksport hajmini 30 milliard dollarga, xorijiy turistlar sonini 7 millionga yetkazish maqsadi belgilangan. Bu bojxona sohasiga alohida mas'uliyat yuklaydi.

Joriy yil 1 maydan boshlab, yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish postlardan chiqariladi va tadbirkor bilan bevosita muloqotsiz, masofaviy amalga oshiriladi. 1 iyuldan tovarlar kodi va qiymatini belgilash, bojxona ko'rigini o'tkazish, imtiyozli deklaratsiya rasmiylashtirishda korrupsion xavflar avtomatlashgan tizim orqali aniqlanadi. 1 sentyabrdan boshlab, barcha elektron bojxona xizmatlari "yagona darcha" tizimi orqali ko'rsatiladi. Yil yakuniga qadar bojxona ko'rigi jarayonlarini to'liq qamrab olgan elektron tizim ishga tushiriladi. Yig'ilishda kontrabandaga qarshi kurashish natijalari ham tahlil qilindi. Xususan, joriy yilning o'tgan davrida 364 kilogramm giyohvandlik vositalari, 88 ming dona psixotrop dorilar hamda 181 milliard so'mlik tovarlar noqonuniy kirib kelishining oldi olindi.

Bu boradagi imkoniyatlarni kengaytirish uchun bojxona postlarini 3D-skaner, rentgen, videokuzatuv, server, transport tarozisi kabi zamonaviy uskunalalar bilan jihozlash, bu yil Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Termiz xalqaro







aeroportlarida, kelgusi yildan boshqa aeroportlarda ham “bojxonachisiz nazorat” tartibini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda<sup>17</sup>.

Mazkur davomiy o‘zgarishlarning har birining mohiyatini fuqarolarga sodda va hayotiy tarzda tushuntirib berish faqat OAVlar va ularni ishonchli axborot bilan ta‘minlayotgan matbuot xizmatlarining qo‘lidan keladi xolos. Davlat Bojxona qo‘mitasi Axborot xizmatining yutug‘i esa bu borada zamonaviy PR texnologiyalaridan foydalangan holda o‘z sayti va ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini sifatli yurgizayotganidir. Shuningdek, eng o‘qimishli gazetalardan tortib, eng tomoshabop telekanallargacha bojxona tizimi yangilarini tez-tez yoritib borilishi, jurnalistlar va blogerlar bilan yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishi axborot xizmatini jamoatchilik bilan aloqalarini tobora mustahkamlamoqda.

Ayni paytda ommaviy axborot vositalarida “raqamli bojxona” tushunchasini ommalashtirish bo‘yicha PR kompaniya olib borilmoqda. *“Raqamli bojxona qanday bo‘lishi kerak?” (xalq so‘zi.uz)<sup>18</sup>, “Respublikadagi ilk raqamli bojxona posti qanday ishlaydi?” (kun.uz)<sup>19</sup>, “Bojxonada ayrim jarayonlar raqamlashtiriladi” (sputnik.uz)<sup>20</sup>, “Ayritom” cheraga bojxona postida raqamli majmualar ishga tushirildi.” (yuz.uz)<sup>21</sup>, “Raqamli bojxona Toshkent viloyatining postlarida “yashirin iqtisodiyot”ga chek qo‘ymoqda” (toshvil.uz)<sup>22</sup>* kabi sarlavhali maqolalar tez-tez ko‘zga tashlanmoqda.

Taklifim, ular sonini ko‘paytirib, bu tushuncha mohiyatini yanada kengroq jamoatchilikka yetkazish kerak. Chunki buni targ‘ib etishga zarurat bor. Hozirgi paytda dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarning bojxona xizmatida, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida ham elektron bojxona, bojxonani raqamlashtirish va avtomatlashtirish atamalari keng qo‘llanilib kelmoqda. Ushbu atamalarning bir-biridan farqi, o‘zaro bog‘liqlik jihatlari

---

<sup>17</sup> <https://iiv.uz/news/>

<sup>18</sup> <https://xs.uz/uz/post/>

<sup>19</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2021/03/27/>

<sup>20</sup> <https://oz.sputniknews-uz.com/>

<sup>21</sup> <https://yuz.uz/uz/news/>

<sup>22</sup> <https://toshvil.uz/oz/>





bo'yicha odamlarda turli fikrlar, qarashlar mavjud. Misol uchun, elektron bojxona tushunchasi qog'ozda amalga oshiriladigan jarayonlarni maksimal darajada kompyuterlashtirish hisoblanadi. Bojxona sohasidagi hujjatlar va jarayonlarning to'liq hamda mukammal holda kompyuterlashtirilishini – raqamli formatga o'tkazishni raqamlashtirish deb aytishimiz mumkin. Oddiy qilib aytganda, "raqamli bojxona" sohaga raqamli texnologiyalar - Big Data(Katta ma'lumotlar), Machine Learning(Mashinani o'rganish), Internet of Things(Buyumlar/narsalar interneti) va boshqa ko'plab texnologiyalarni joriy etishdir. Bojxonani raqamlashtirish bojxona sohasining ma'lum bir yo'nalishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning butun faoliyat sikli davomida uzluksiz boshqarishni, shu jumladan, ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, to'plash, o'zgartirish va tahlil qilish, bunday ma'lumotlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Bojxona rasmiylashtiruvda inson omilini keskin qisqartirishga e'tibor qaratilgan ushbu loyiha amaliyotga qo'llanilganda 7 ta hududdagi (Qashqadaryo, Xorazm, Sirdaryo, Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Jizzax) tovarlar rasmiylashtiruvi masofadan o'tkazilib, byudjetga undirilgan to'lovlar 52 foizga va deklaratsiyalar soni 17 foizga ortdi. Bojxona postlarida huquqbuzarlik xavfini aniqlash tizimi takomillashtirilishi natijasida eksport tovarlarini avtomatik rasmiylashtirish 14 barobarga oshdi. Import tovarlari ko'rigida huquqbuzarliklarni aniqlash samarasi 2,1 barobarga, ushlab qolingan noqonuniy tovarlar qiymati 55 foizga ko'paydi. Respublika bojxona postlariga 7 mingdan ortiq nazorat-o'lchov moslamasi o'rnatilishi hisobiga 2-3 kungacha davom etadigan bojxona tekshiruvlari vaqtini 10-15 daqiqagacha qisqartirishga erishildi.<sup>23</sup>

Xulosa o'rnida, shuni ta'kidlash kerakki, dunyo hamjamiyati bojxona xizmatlari faoliyatida zamonamizda to'rtinchi sanoat inqilobi deb ataluvchi yangi texnologiyalar(sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, blokcheyn, narsalar internet va boshqalar) shiddat bilan amaliyotga tadbiiq etib kelinmoqda. Bojxona organli faoliyatida qancha o'zgarishlar va tub islohotlar amalga oshirilmasin, ular

<sup>23</sup> <https://e-gov.uz/news/>





jamoatchilikka to'g'ri yetkazilmas ekan kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Zero, bu rivojlanishning bari insonlar uchun yengillik yaratish uchun qilinmoqda. Demak u insonlarga to'g'ridan-to'g'ri tushunarli bo'lishi uchun Axborot xizmati va ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyosdir.





**ENSURING THE RIGHT TO PRIVACY IN CYBERSPACE:  
THEORETICAL AND LEGAL AND SOCIAL ASPECTS**

**Abdulhamidova Khadichabegim Ulugbek qizi**  
**First-year Master's Degree and Distance Learning of**  
**Tashkent State University of Law**  
**Supervisor: Allayorov Jaxongir Tashpolatovich**  
**PhD, acting associate professor of the Department of**  
**«Private International Law»**  
**of the Tashkent State University of Law**

**Introduction.** With the advent of new information technologies and the expansion of cyberspace, new questions arise regarding the right to privacy. Digital technologies have given humanity many opportunities, but they have also created new challenges for human privacy. It must be admitted that life without the Internet and online communications now seems unimaginable. Almost all aspects of human life are connected with the Internet.

**Main part.** Let us list some aspects of ensuring human rights to privacy in cyberspace.

Privacy is a complex legal institution that includes a number of individual powers of an individual: “a ban on the collection, storage, use and dissemination of information about a person’s private life without his consent, the right to control information about himself, the right to protect honor and good name, to the protection of personal data, the right to inviolability of the home, the secrecy of communications, the secrecy of voting, and others” [1, p. 789]. In cyberspace, there are many ways to violate the right to privacy of a person. One of the most common methods is the collection of data without the consent of the data subject. This process is called "espionage" or "surveillance" and includes methods such as tracking the user's location, collecting information about any activity they take on





the Internet, and recording or listening to all their phone calls and messages. The data is collected and then used to create what is called a "consumer profile" - a collection of data used to predict a user's online and offline behavior.

It is known that in European countries the right to the protection of personal data is "derived" from the right to the protection of private life[2, p. 135]. Equally relevant is the problem of human rights in cyberspace, cases of violence and discrimination in the online environment. These problems are related to the fact that cyberspace allows anonymous users to freely express their opinions and act without consequences. As the researchers rightly noted, "the main danger to privacy lies in the fact that after entering biometric personal data into the passport of a citizen of a particular state, it becomes possible to remotely remove such data, which will inevitably lead to the creation of a total system of people tracking tools" [3].

In the modern world, technological progress and the spread of digital technologies and artificial intelligence have a significant impact on the realization of human rights, including the human right to privacy in cyberspace. Despite the fact that automation and the creation of new technological solutions improve people's lives and simplify the processes of social relations, the presence of problems is not excluded. In order to protect personal data and privacy rights, certain precautions must be taken, such as the use of strong passwords and anti-virus programs, restricting access to personal information, and careful attention to the processes for publishing personal information on the Internet (in particular, in social networks).

However, not all risks associated with infringement of privacy rights can be prevented with the best efforts. A particularly urgent problem is the theft of personal data of users from social networks, as this can lead to consequences associated with the unauthorized use of personal information, as well as the persecution of an individual in social networks, cyberbullying[4].





The protection of privacy in cyberspace is an urgent problem that requires attention, both from the side of states and from every person who uses the Internet. It is necessary to improve the norms of information legislation, international norms and rules, as well as to increase the level of awareness and education (legal and digital culture of the individual). It makes sense to say that large-scale improvements in transparency and data protection are now needed to protect consumer rights, as well as the creation of reliable mechanisms to manage the risk of discrimination and other wrongdoing. One practical example where digital technologies can violate human rights is in surveillance and monitoring systems.

It should be noted that the development of cyberspace has become a significant step in the development of information technology. Cyberspace is an area that is outside the boundaries of physical reality and through which people can exchange information. However, some actors have begun to use cyberspace to violate the privacy of some people.

Unlike ordinary space and public relations practices, in cyberspace, privacy becomes more vulnerable, and additional measures have been taken to ensure privacy in the global community. For example, the HTTPS protocol provides an encrypted connection for websites, which provides a greater degree of privacy when transmitting data on the Internet. Other measures include enhanced security measures that serve to prevent unauthorized access and identity theft.

### **Conclusion**

Thus, ensuring the right to privacy in cyberspace is a difficult task, but many international organizations and states are already taking steps to protect this right. The key ones are security measures, technical means of encryption and legal norms providing for sanctions and legal enforcement measures.

To solve the above problems, it is necessary to constantly improve legislation and international cooperation in the fight against cybercrime. Many countries are currently working to develop rules and regulations that help protect human rights to privacy in cyberspace.





It is also necessary to improve the level of education, awareness of citizens about their rights and risks associated with privacy on the Internet.

It is necessary to ensure in practice the social relations that are taking shape in the information society, the implementation of the concept of digital personality and digital profile. To this end, we define that a digital profile is a collection of information about citizens and legal entities contained in the information systems of state bodies, local governments and organizations exercising public powers, as well as in a unified system of identification and authentication. Along with the above, one should take into account the need for the existence and operation of guarantees for the protection of digital rights of citizens in developing online legal relations.

#### **List of used literature**

1. Bachilo I. L., Lopatin V. N., Fedotov M. A. Information law. St. Petersburg: Legal Center Press, 2015. 789 p.
2. Bouhadana I. Le droit au respect de la vie privée à l'ère du numérique dans le système français // The evolution of state and legal institutions in the context of the development of the information society. M., 2012. S. 135-153.
3. Poperina E.N. Informatization of society and private life // Questions of modern jurisprudence. 2013. No. 25. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/informatizatsiya-obschestva-i-chastnaya-zhizn> (date of access: 01/03/2023).
4. Edilova H.V. Privacy in the information and telecommunications network "Internet" // Law and practice. 2017. No. 4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/neprikosnovennost-chastnoy-zhizni-v-informatsionno-telekommunikatsionnoy-seti-internet> (Date of access: 01/03/2023).





XORAZM VOHASI ANTIK DAVR YODGORLIKLARINING ARXEOLOG  
OLIMLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI

*Tajimuratov Doniyor Baxromovich*

O'zbekiston milliy universiteti arxeologiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti

tajimuratovdoniyor@gmail.com

+998 99 650-19-19

Xorazm vohasi Amudaryoning quyi havzasida vujudga kelgan qadimiy davlatlardan biri bo'lgan. O'lka antik davrda geografik jihatdan hozirgi Xorazm viloyatiga nisbatan ancha keng hududni egallagan. Unga janubda Birota (Darg'onota) shimolda Orol dengizi, g'arbda Sariqamish havzalari va yuqori Uzboy, sharqda janubiy Oqchadaryo deltalari hududlari kirgan<sup>24</sup>. Bugungi kunda qadimgi Xorazm hududida Turkmanistonning shimoli-sharqiy qismi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlari joylashgan.

Xorazm so'zining ma'nosi haqida ma'lumot berib o'tishimiz lozim. "Xorazm" so'zi qadimgi Eron tilida "Xvarazmi" ((H)uvārazmi), yunon manbalarida "Xorasmiya" va Ktesiy asarida "Xoramniy" tarzda berilgan. I. M. Dyakonov va V. Geyger "Xorazm" so'zi etimologiyasini talqin qilib, "Xvarizem" – "xvara" – ovqat, ya'ni hosildor yer yoki "xvar" – "quyosh" bo'lishi ham mumkin degan xulosani beradilar<sup>25</sup>. S.P.Tolstov o'z tadqiqotida bu so'zning ma'nosini xurrit qabilalari bilan bog'laydi. Hozirgi davrdagi tadqiqotlarda "Quyoshli o'lka" ma'nosi ishlatib kelinmoqda.

Qadimgi Xorazm tarixi bo'yicha ma'lumotlar Ahamoniylar davriga oid yozma manbalarda – Behistun qoya tosh yozuvlarida, Suza saroyidan topilgan yozuvda, Doro I ning haykalida, Naqshi Rostam yozuvlarida, Doro I ning

<sup>24</sup> Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. /История государственности Узбекистана. Т.1. – С. 107.

<sup>25</sup> История Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. I книга. –Баку: Нагыл Еви, 2012. –С.57; Geiger W. Ostirānische Kultur im Altertum. –Erlangen. 1882. –P. 29.







qabridagi yozuvlarda, Persepol saroyining boʻrtma tasvirlarida, Artakserks II ning qabr tosh yozuvlarida saqlanib qolgan. Bu manbalar I.Markvart, E.Xersfeld, R.Kent, A.Edakov, A.A.Freyman, V.V.Struve, V.I.Abayev, M.A.Dandamayev, S.P.Tolstov, I.V.Pyankov, Y.A.Rapoport, M.M.Dyakonov, B.I.Vaynberglar tomonidan keng tadqiq qilingan<sup>26</sup>.

*Xorazm vohasi antik davri tarixini oʻrganishda S.P.Tolstov, A.V.Andrianov, Nerazik, M.G.Vorobeva, Y.A.Rapoport, B.I.Vaynberg singari olimlardan iborat boʻlgan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari ulkan hissa qoʻshganlar.*

*XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlarida Oʻzbekistonlik M.Mambetullayev, V.N.Yagodin, Gʻ.Xodjaniyazov, Q.Sobirov, S.Baratov, A.Abdirimov singari qadimshunoslar Xorazmda arxeologik tadqiqotlar olib borganlar.<sup>27</sup>*

*Ilmiy rahbarim, jonkuyar olim, Ustoz Oʻzbekiston arxeologiyasining ustuni, Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy aʼzosi Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev oʻzining asarlarida antik davr Xorazm toʻgʻrisida juda boy, asoslangan, toʻliq ilmiy maʼlumotlar yozganlar.<sup>28</sup>*

Qadimgi Xorazm tarixi boʻyicha antik davr mualliflari – Gerodot (mil.avv. 484-425-yillar), Strabon (mil.avv.64-23-yillar), Ktesiy (mil.avv.415-397-yillar), Arrian (mil.avv.95-175-yillar) va qadimgi Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf (milodiy I asr) ning asarlarida maʼlumotlar saqlanib qolgan.

Mil.avv. IV-III asrlardan boshlab, yaʼni mustaqil Xorazm davlati tashkil topgach, gʻarbiy Xorazm hududida katta va kichik hajmdagi yuzga yaqin qalʼalar

<sup>26</sup> Kent R. G. Old Persian: Grammar. Texts. Lexicon. –New Haven, 1953; Дандамаев М.А. Политическая история ахеменидской державы. –М.: Наука, 1985. – С. 248; Дьяконов М.М. Очерки истории древнего Ирана. –М.: Восточная литература, 1961. –444 с. ; Дандамаев М.А. Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. –М.: ГРВЛ. 1980, – С. 144-145; Эдаков А.В. Новые надписи Ахеменидов. // ВДИ, 1976, №2; Толстов С.П. Древний Хорезм; Ўша муаллиф: По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.:Наука, 1962; Пьянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского. // ВДИ. 1972. №2. – С. 13-14; Рапопорт Ю.А. Краткий очерк истории древнего Хорезма в древности. //Приаралье в древности и средневековье. –М.: Восточная литература, 1998. – С.28–41; Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культуры // В кн.: Кочевники на границах Хорезма. (Труды ХАЭЭ–XI). –М.: Наука, 1979. –С. 7–77.

<sup>27</sup> Mirzo Ulugʻek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti. Oʻzbekiston tarixi 1-kitob. Oliy oʻquv yurtlari tarix fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent “VNESHINVESTPROM” 2019-yil. –B 244

<sup>28</sup> Shu manba





qad ko'targan. Antik Xorazm davlati mil.avv. IV asrdan milodiy III asrgacha eng qudratli davlatlardan biri bo'lgan. Bu davrda Xorazmda maydoni 10 gektardan katta bo'lgan o'nlab yirik shaharlar qurilgan<sup>29</sup>. Beruniy bu davrda qadimgi Xorazmda 300dan ortiq shaharlar bo'lganligini yozib qoldirgan<sup>30</sup>. Bu ma'lumotlar arxeologik tadqiqotlar natijasida ham isbotlangan. XX asrning 70-yillarda 300dan ortiq yodgorliklar topilgan bo'lsa<sup>31</sup>, 90-yillarning oxiriga kelib, ularning soni 400taga yetgan<sup>32</sup>.

Endi Xorazmni o'rganish tarixiga bo'lgan qiziqish haqida to'xtalib o'tsam. Bilamizki nemis arxeologi Xenri Shliman Troyani topadi. Fon Kaufman ham ana shu shov-shuvni «Московские ведомости» gazetasida o'qiydi.<sup>33</sup> So'ng Amudaryoning har ikkala qirg'og'idagi qadimiy Xorazm qal'alarida tadqiqot olib borish uchun Turkiston arxeologiya jamiyatini tuzish lozimligini ko'ngliga tugib qo'ydi. Negaki, fransuzlar Misrda, nemislar Turkiyada, inglizlar Hindistonda tarixiy yodgorliklarni tekshirib, ko'pgina boyliklarga ega bo'lishayotgandi. Yarim poshsho deb atalgan Fon Kaufman topogrof, etnograf, geograf olim-zobitlardan qadim qal'alar aks etgan tarixiy va jug'rofiy ma'lumotlar xaritasini tayyorlab berishn iltimos qiladi.

Ko'p ming yillik qal'a va makonlarni qum ostidan topish uchun mustahkam e'tiqod, iqtidor, fan yo'lidagi fidoiylilik zarurligini bosqinchi general o'ylab ham ko'rmaydi hamda uning bu orzusi amalga oshmaydi.

1936-yil bahor fasli boshlarida ekspeditsiya Amudaryoning Janubiy sohillari bo'ylab Xorazm vohasiga kirib keldi. Ekspeditsiya ixtiyorida o'ttiz to'rt nafar ilmiy xodim, bitta mashina, o'n ikkita tuya, yigirmata ot, eshaklar va boshqa kerakli asbob-uskunalar bor edi.<sup>34</sup> Arxeologik ekspeditsiyaga Sergey Pavlovich

<sup>29</sup> Неразик Е.Е. Древние города Хорезма и пути их развития (IV в. до н.э. IV в. н.э.). / Центральная Азия. История, источники, культура. – М.: Восточная литература, 2005. –С. 549- 550.

<sup>30</sup> Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Тошкент: Фан, 1968. –Б.231.

<sup>31</sup> Воробьева М.Г. Проблема «Большого Хорезма» и археология //Этнография и археология Средней Азии. –М.: Наука, 1979. –С. 40.

<sup>32</sup> Рапопорт Ю.А. Краткий очерк истории древнего Хорезма в древности. –С. 31–32.

<sup>33</sup> S.P.Tolstov. Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2014-yil. 4-bet

<sup>34</sup> Shu manba. 5-bet





Tolstov rahbarlik qilar edi. Bu vaqtda u endigina 30 yoshga kirayotgan edi. Birinchi marotaba u 1929-yilda ilk bora Xorazmga kelgan edi. Kamtarinlik va fidoiylik Tolstovni akademik, yetuk olim darajasiga chiqardi.

U 1946-yil 4-iyulda Moskvada bo‘lib, fanlar akademiyasiga Xorazmda ish olib borayotgan ekspeditsiyaga doir hisobot berdi: *«Shu davrgacha noma'lum bo'lgan 200 ta qal'a siri ochildi. O'n bir ming kvadrat maydonda, yerto'larida 15-20 ming yil yotgan antropologik, arxeologik ashyoviy dalillar, ibtidoiy jamoa, quldorlik davri, qadimiy Xorazm davlatining paydo bo'lishi, yuksalishi va yemirilishiga doir ashyoviy topilmalar tarix fanida yangilik bo'ldi.»*<sup>35</sup>

*Xorazm vohasi antik davri tarixini o'rganishda S.P.Tolstov<sup>36</sup>, A.V.Andrianov<sup>37</sup>, Nerazik<sup>38</sup>, M.G.Vorobeva<sup>39</sup>, Y.A.Rapoport<sup>40</sup>, B.I.Vaynberg<sup>41</sup> singari olimlardan iborat bo'lgan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari ulkan hissa qo'shganlar. Ularning izlanishlari va kashfiyotlari tufayli, Xorazm sivilizatsiyasi, qadimiy shaharlari, moddiy va ma'naviy madaniyat obidalari butun jahonga mashhur bo'ldi.*

Akademik E.V.Rtveladze, D.A.Alimova tahriri ostida 2021-yilda nashrdan chiqqan O'zbek davlatchiligi tarixi kitobida, Qurbonboy Sobirovning 2009-yil chop qilingan Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari, G'.Xo'djaniyazovning 2007-yil nashrdan chiqqan Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari, S.P.Tolstovning kitoblarida, D.Sh.Kurbanovning Xorazm vohasining qadimgi va ilk o'rta asrlar ma'naviy madaniyati kitobi, N.A.Egamberdiyevaning Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati DSc dissertatsiyasi

<sup>35</sup> S.P.Tolstov. Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2014-yil. 6-bet

<sup>36</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М., Изд-во МГУ 1948 г

<sup>37</sup> Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. М., «Наука» 1969 г

<sup>38</sup> Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма. // Культура и искусства древнего Хорезма. М., «Наука»

<sup>39</sup> Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 гг. //МХЭ. Выш. 6. М., Изд-во АН СССР. 1963 г

<sup>40</sup> Рапопорт Ю.А. Космогонический сюжет на хорезмийских сосудах. //Средняя Азия в древности и средневековье. М-1977 г

<sup>41</sup> Вайнберг Б.И. Скотоводческие племена в древнем Хорезме. //Культура и искусство древнего Хорезма. М., «Наука» 1981 г





avtoreferati, X.Matkarimovning Xorazm vohasida arxealogik tadqiqotlar tarixi PhD dissertatsiyasi avtoreferatida ko‘plab ilmiy ma’lumotlar yozib qoldirganlar.

Hozirgi vaqtda Xorazmda Urganch davlat universiteti professor-o‘qituvchilari va talabalari mavjud yodgorliklarni saqlash, yangilarini topish maqsadida ilm-fan bilan shug‘ullanib, Vatanimiz rivojlanishiga, boshqa davlatlar tomonidan O‘zbekistonni qadimiy, rivojlangan davlat sifatida tan olinishiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.





VOYAGA YETMAGAN YOSHLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNI  
OLDINI OLISH PROFILAKTIKASINI YARATISH ZARURATI

Namangan Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti

“Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalish”

2-bosqich talabasi

Abdusattorova Gulyor

Rahbar Sotvoldiyev Faxriddin

**Annotatsiya:** Maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi borasida umumta’lim maktablarining o’rni va ahamiyati o’rganib tahlil qilinadi.

**Kalit so’zlar:** huquqbuzarlik, g’ayriijtimoiy hatti-harakatlar, xulqatvor, yakka tartibdagi profilaktika, maxsus profilaktika.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish har bir davlatning muhim va asosiy vazifasi hisoblanadi. Inson tinch va xotirjam yashashni xohlaydi. Tinchlik bo’lgan joyda baraka va rivojlanish bo’ladi. Tinchlikni ta’minlashning asosiy omili bu insonlarni yoshlikdan bohlab to’g’ri fuqaro pozitsiyasida tarbiyaashdan iboratdir. Ushbu jadal rivojlanayotgan davrda yoshlarni huquqbuzarligini oldini olish va uni profilaktikasini ta’minlash davlatimiz oldida turgan ustuvor vazaifalardan biriga aylanib ulgrudi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi masalasi faqatgina bir tashkilot zimmasidagi vazifa bo’lib qolmasdan, bu yo’nalishda tizimli faoliyatni olib borish maqsadga muvofiq bo’lishi haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev —Davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e’tibor qaratmayapti, deb ta’kidlagan. O‘zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan faoliyat huquqbuzarlik sodir etish havfi ostidagi voyaga





yetmagan shaxslarni har tomonlama o'rganish va amaliy yordam ko'rsatishga imkon beradi<sup>42</sup>.

2010-yil 29 sentabrda qabul qilingan —Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida'gi qonunning 2-bob 8-moddasiga ko'ra —Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

- Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar;
- Ichki ishlar organlari;
- Ta'limni boshqarish organlari va ta'lim organlari;
- Vasiylik va homiylik organlari;
- Sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari;
- Mehnat organlari, deb belgilangan. Ta'lim tizimi huquqbuzarliklar profilaktikasi borasida ishlarni olib borishda voyaga yetmaganlarni kuzatish, xulqiy o'gishlarni payqash, axloqiy o'zgarishlarni nazorat qilishda ustunliklarga ega. Jumladan:

- ♣ O'quvchilarning kundalik davomatini o'rganish orqali sababsiz dars qoldiradigan va darsga qatnashga befarq bola va buning nazoratini to'g'ri tashkil etmagan oila haqida ma'lumotlar olish;

- ♣ Darslarni o'zlashtirishda qiynaladigan bolani payqash;

- ♣ Maktabga bolaning turli jismoniy jarohatlar (masalan, ko'karish, kuyish, holsizlik va boshqalar) bilan kelishi zo'ravonlikka duchor bo'lganligi ehtimoli yuzasidan o'rganishlar olib borish;

- ♣ Bolaning maktabdagi referent guruhi bilan munosabatini kuzatib borish;

- ♣ Darslarga doimiy kechikib kelishiga sabab bo'lgan sharoitlarni aniqlash;

---

<sup>42</sup> 1. Sh.M. Mirziyoyev. 2017-yil 4-mart kuni qabul qilingan —Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2833- sonli Prezident qarori. <https://lex.uz/docs/- 3141186>





♣ Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolganda yoki ota-onasi ajrashganda yoxud ota-onasidan biri vafot etganida boladagi hissiy va turmush o'zgarishlarining avval va hozirgi holatini tahlil qilish;

♣ Bolaning shaxsiy fazilatlari, dunyoqarashi, qiziqishlarini aniqlash kabi vazifalardir<sup>43</sup>.

Mamlakatimizda jinoyatchilik va uni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda yoshlarning jinoyatchilik yo'liga o'tishlarining oldini olishga katta e'tibor qaratilyapti.

Tadqiqotlar natijasida yoshlar huquqbuzarliklarining oldini olishning tashkiliy va huquqiy choralarini belgilash va hal etishda bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Xususan, ota-onalar tomonidan farzandlarining ta'lim muassasalarida ta'lim olishini pedagogik nazorat qilish darajasi juda sust. Shu bilan birga qishloq joylarida ta'lim muassasalarining yetarli emasligi, yoshlar (18-30 yosh) bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlarining mas'ullik darajasini belgilovchi va ularga majburiyat yuklovchi qonun normalarining yagona tizimi mavjud emasligi shular jumlasidandir.

Jamiyatdagi barcha nojo'ya holatlar, jumladan, oiladagi notinchlik, ta'lim muassasalari ishidagi va boshqa sohalardagi kamchiliklar yoshlarning normal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Huquqbuzarlik sodir etgan yoshlarning 62,2 foizi bo'sh vaqtlarini ko'chada o'tkazishadi<sup>44</sup>.

Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun, avvalambor, axborot-tahlil ishlarini yo'lga qo'yish lozim. Bu bilan yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatchilikning umumiy holati, miqyosi, tarkibi, tabiati va dinamikasi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

---

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi —Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonunning 8-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.-T.,2010.- №39.

<sup>44</sup> Костекова К.А. «Роль социального педагога в профилактике правонарушений в подростковой среде».





Shuningdek, yoshlar huquqbuzarliklarini baholashda ularning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olish, u yoki bu hududda ma'lum bir turdagi, ayniqsa, og'ir oqibatlarni keltirib chiqaruvchi jinoyatlarning sabablarini tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

So'nggi statistik ma'lumotlarga qaraganda, yoshlar o'rtasida jinoyat sodir etish 2018 yil mobaynida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 foizga, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat sodir etish esa 17 foizga kamaygan<sup>45</sup>. Biroq, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning saqlanib turganligi barchamizni befarq qoldirmasligi lozim.

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish – butun jamiyatning vazifasi<sup>46</sup>. Tadqiqotlar aksariyat jinoyatchilarning shaxsi dastlab tarbiyasizlik oqibatida shakllanishini ko'rsatmoqda. Tarbiyasi og'ir o'smir – axloqan tuzatish va qayta tarbiyalashga muhtoj bo'lgan shaxsdir. Uni axloqan tuzatish va tarbiyalash jinoyatchiga aylanishining oldini olish, shuningdek, jamiyat bilan normal aloqalarini tiklash, unda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun “ Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari” nomli loyiha Respublikamiz hududida amalga oshirildi. Unga ko'ra, Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish masalasi qo'yildi

### **Loyihaning vazifalari:**

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalash bo'yicha xalqaro tajribalarini o'rganish.

---

<sup>45</sup> <https://infourok.ru/rol-socialnogo-pedagoga-v-profilaktike-pravonarusheniy-vpodrostkovoy-srede-3776595.html>

<sup>46</sup> <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/yoshlar-kelajagimiz-ularni-jinoyat-botqogiga-botirmaylik>







Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning mavjud holatini o'rganish, tahlil qilish.

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning kelib chiqish sabablarini aniqlash.

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish.

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va pedagogik tizimi modelini ishlab chiqish.

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish.

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini aprobatsiyadan o'tkazish.

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish<sup>47</sup>.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlari faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishiga aylandi. Albatta, bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu yoshlar orasida huquqbuzarliklarning o'sish yo'llarini o'rganish va ularning oldini olishsamaradorligini oshirishdir.

Profilaktik tadbirlar jarayonida bolani profilaktikaning to'liq obyektiga aylantirmasdan, barcha jarayonlarda u bilan birgalikda ishtirok etish va profilaktika subyektlari (maktab, jamoat tashkilotlari, oila, davlat organlari, jamiyat) hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak.

---

<sup>47</sup> <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/yoshlar-kelajagimiz-ularni-jinoyat-botqogiga-botirmaylik>





**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M. Mirziyoyev. 2017-yil 4-mart kuni qabul qilingan —Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2833- sonli Prezident qarori. <https://lex.uz/docs/-3141186>

2. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi —Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunning 8-moddasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.-T.,2010.,- №39.

3. Костекова К.А. «Роль социального педагога в профилактике правонарушений в подростковой среде».

4. <https://infourok.ru/rol-socialnogo-pedagoga-v-profilaktike-pravonarusheniy-v-podrostkovoy-srede-3776595.html>

5. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/yoshlar-kelajagimiz-ularni-jinoyat-botqogiga-botirmaylik>





MUSULMON OLAMIDA DINSHUNOSLIK FANINING  
RIVOJLANISHI

Egamov Orifjon Adilbekovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Qiyosiy dinshunoslik mutaxassisligi 1- kurs magistranti

ANOTATSIYA

Musulmon olamidagi dinshunoslik fanining kirib kelishi va ularning dunyo dinlariga bo'lgan munosabatini o'rganish islom dinining naqadar go'zal din ekanini ochib beradi. Hozirgi kundagi turli xil radiqal shaxslar va jamoalarga bu orqali erkin fikrlar berish va islomda dinlarni qanchalik darajda o'rganish muhim keanini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** din, islom, mazhab, yo'nalish ,firqalar, fan,tarix.

**KIRISH**

Din azaldan kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlagan. Markaziy Osiyo xalqlari e'tiqod qilib kelgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarining shakllanishiga xizmat qilgan. Din insoniyatning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'liq, ijtimoiy hayotda doimo u bilan birga bo'lib kelgan. Dinni o'rganish — bu inson ma'naviy dunyosini o'rganishdir. Diniy manbalar insoniyat tarixida sodir bo'lgan ibratli voqealarni o'zida mujassam qilgan, ular kishilarni axloqiy tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bu esa insonning hayot so'qmoqlarida adashmasligi, yaxshi-yomon, oq-u qorani anglab yetishi hamda o'z umrini oqilona tashkil etishi uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Natijada insonning turmush tarzi yuksalib, jamiyatda taraqqiy etadi.

Dinga e'tiqod qilish va vijdon erkinligi masalasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. U xalqaro huquqiy-me'yoriy talablarga to'liq javob beradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida vijdon erkinligining ta'minlanishi, barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga, jumladan, e'tiqod





erkinligi huquqiga egaligi, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi ko'rsatilgan.

Ko'p millatli, ko'p konfessiyali O'zbekistonda mustaqillikka erishilgan ilk yillardanoq din, bag'rikenglik masalalariga katta e'tibor berildi. Dinning insonparvarlik falsafasi, ezgu g'oyalari va buyuk ajdodlarimiz merosidan bahramand bo'lish, ushbu yuksak qadriyatlarning yoshlar qalbidan joy olishi uchun mamlakatimiz ta'lim tizimi sohasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Ijtimoiy-ma'naviy hayot, milliy va demokratik taraqqiyotning uyg'unligi, millat va mamlakatning yuksalib, dunyoga yuz tutish jarayoni yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, tafakkur tarzi, milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishdagi ko'nikma va bilimlariga chambarchas bog'liq. Zero, dinni xolis, ilmiy tadqiq etish, uni yaxlit ijtimoiy fenomen sifatida o'rganish uning bugungi holati va din bilan bog'liq masalalarni tizimli tahlil qilish va istiqbolini belgilash imkonini beradi.

## **ASOSIY QISM**

Musulmon olamida dinlarni o'rganish orasida qadimiy yo'lga keladigan bo'lsak mazhablar va yo'nalishlar borasidagi islomiy ilmlar birdaniga paydo bo'lmagan, balki u ko'plab rivojlanish bosqichlaridan o'tgan. Bu ilmning asosi deya aslida Payg'ambar sallolohu alayhi vasallamning islom ummati yetmish uch firqaga bo'linishi borasidagi hadisni keltirish mumkin.

“Majusiylar yetmish firqaga bo'lindi, yahudiylar yetmish bir firqaga, nasroniylar esa yetmish ikki firqaga bo'lindi. Islom ummati yetmish uch firqaga bo'linadi va ulardan bittasi najot topguvchidir, qolganlari halok bo'ladi” dedilar. “Najot topguvchilar kimlar” deya so'raldi. “Ahli sunnah val jamoa” dedilar. “Sunnat val jamoa” kimlar deyildi. “Bugun men va sahobalarim uning uzra bo'lganimizdir” dedilar.

Dinlarni o'rganish fani yoki qiyosiy dinshunoslik fani haqida doktor Abdulkader Baxoush shunday deydi: “Bu fanning materiallari Islom tafakkurida





juda ko'p va o'ziga xosdir. Islomiy olimlar tomonidan tasvirlangan. Mahab va yo'nalishlar deb ataladigan bu fan, Islom olamining boshqa xalqlar va millatlar uchun ochiqligida katta ahamiyatga ega. Chunki bu asarlar aloqa ko'prigi bo'lib xizmat qiladi va musulmon olimlarining bu fanga qiziqishi shubhasiz ekanini musulmonlar va boshqalar o'rtasida ko'plab dialogik va dialektik harakatlar faol bo'lganini yana bir bora tasdiqlaydi”.<sup>48</sup>

Arab musulmon olimlarining dinlar ilmiga bo'lgan qiziqishi hijriy ikkinchi asrning oxiri va uchinchi asrning boshlarida boshlangan . Dinlarni ichida o'rganishi lozim bo'lgan eng muhimlari bilan bog'liq xarita chizilgan va xarita orqali eng muhim millatlar va dinlarni ajratib ko'rsatish uchun o'z yo'lini yaratish

Payg'ambar vafotidan keyin musulmonlarni siyosiy tafovutlar qiynab qo'ydi va diniy mazhablar va yo'nalishlar paydo bo'la boshladi, ayniqsa Islom fathlaridan so'ng, bu musulmonlarning qadimiy va turli e'tiqod va urf-odatlariga ega bo'lgan xalqlar bilan assimilyatsiya qilinishiga olib keldi, va bu narsalar Islomga soya soldi. Shia, mu'tazila, murjia va boshqa mazhablar shakllandi va mutafakkirlar, tarixchilar, e'tiqod va kult olimlari paydo bo'ldi, ular maqolalar, hukumlar , bu firqalarni ochib berishlik uchun kitoblar yozdilar. Ushbu kitoblarning eng muhimi, “Qadariylarga raddiya” va “Murjianing tarniflari” kitobidir. Afsuskiy bu kitoblar borasidagi yozuvchi ham mo'taziliya firqasi azosi va asoschisi, birinchi mo'tazila yozuvchi Vosil ibn Ato bo'lgan.

Usmonli davrida boshqa dinlar haqidagi ma'lumotlarni “Al milal va an nihal”, “al farq baynal firoq ” kabi asarlarda topishlik mumkin. Usmonli imperiyasining so'nggi davrlarida maktablarda dinlar tarixi to'g'risida umumiy tarix ichida ma'lumotlar berila boshlandi. 1914 yilga kelib ochila boshlagan madrasalarda esa bu fan alohida fan sifatida “Tarix ul adyan val mazahib- dinlar va mazhablar tarixi” deya kiritildi va o'qitila boshlandi. Ba'zi islohatlardan keyin, bu fanga

---

<sup>48</sup> Tohir Hasu Zayyariy. Asrimizdagi satsiologik nazariyalar. Urdun: Bayrut, 2016. -B.258-259





qo‘shimcha ravishda, barcha din vakillari bilan bilan ko‘rishish orqali o‘tiladigan “Ma‘lumot ud-din ” fani dars sifatida o‘tila boshlandi.<sup>49</sup>

Usmonli davridagi dinlar tarixi bilan bog‘liq adabiyotlarni nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Asotiyr” deya nomlangan va keyinchalik Shashteyn Samiy tomonidan 1878-yil nashir etilgan asarni topishligimiz mumkin. Bu asarda ko‘plab ibtidoiy dinlar haqida ma‘lumotlar berilgan va shu orqali madrasa talabalariga ko‘plab ma‘lumotlar yetkazilgan. Shu tariqa islom olamida ham dinlar tarixi va dunyo dinlarini qiyosiy o‘rganish borasidagi ilmar rivojlandi va rivojlanib kelmoqda.

### **XULOSA**

Ijtimoiy-ma‘naviy hayot, milliy va demokratik taraqqiyotning uyg‘unligi, millat va mamlakatning yuksalib, dunyoga yuz tutish jarayoni yosh avlodning ma‘naviy qiyofasi, tafakkur tarzi, milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishdagi ko‘nikma va bilimlariga chambarchas bog‘liq. Zero, dinni xolis, ilmiy tadqiq etish, uni yaxlit ijtimoiy fenomen sifatida o‘rganish uning bugungi holati va din bilan bog‘liq masalalarni tizimli tahlil qilish va istiqbolini belgilash imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Tohir Hasu Zayyariy. Asrimizdagi satsiologik nazariyalar. Urdun: Bayrut, 2016.- B.258-259
2. Mehmet Aydin “Usmon Ali madrasalarida tarixiy adyon darsligi”. Usmoni dunyosida bilim va o‘git millatlar kongresi. (Istanbul: Islam tarixi va san’ati markazi, 2001y) 169

---

<sup>49</sup> Mehmet Aydin “Usmon Ali madrasalarida tarixiy adyon darsli”. Usmoni dunyosida bilim va o‘git millatlar kongresi. (Istanbul: Islam tarixi va san’ati markazi, 2001y) 169





## VOLEYBOLCHILARNING XUJUM TAKTIKASI ASOSLARI

**Odilova Feruza Valijon kizi**

Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti Professional ta'lim va jismoniy madaniyat kafedrası assistenti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada voleybolchilarning xujum taktikasi asoslari va funksional tayyorgarlik asoslari. To'g'ri va o'z vaqtida qo'yilgan asosiy malaka va mahoratlarni shakllantirish jarayoni haqida malumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** voleybol, hujum taktikasi, jamoaning taktik harakati, guruhli taktik harakat, individual taktik harakatlar.

### **KIRISH**

O'zbekistonda Jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish to'g'risida kadrlar tayyorlashdagi oqilona tizim muhim ahamiyatga ega. SHu bois respublikamizda jismoniy madaniyatning maqsad va vaziri falari hukumatning hamda Respublika jismoniy–tarbiya va sport qo'mitasining qaroridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan jismoniy madaniyatni o'z oldiga qo'ygan maqsadi sog'lom-ruhan tetik va bunyodkor insonni hayotga tayyorlashdan iborat.

### **MUXOKAMA VA NATIJALAR**


Hujum taktikasi deganda jamoaning taktik harakati, guruhli taktik harakat va individual taktik harakatlar tushuniladi. Hujumdagi keng qamrovli taktik faoliyat ma'lum bir taktik kombinatsiya asosida boshlanadi va kombinatsiya so'ngida individual harakat usuli bilan yakunlanadi. Hujum taktikasining mantiqiy ketma-ketligini va mazmunini quyidagi tartibda ko'rib chiqamiz.

Hujumdagi jamoaviy taktik harakatlar quyidagi uchta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi: ikkinchi to'p uzatishdan so'ng oldingi qator (hujum zonasi) dagi



o'yinchilar tomonidan; ikkinchi to'p uzatishdan so'ng ikkinchi qator (himoya zonasi) dagi o'yinchilar tomonidan; birinchi to'p uzatishdan so'ng.

Bog'lovchi o'yinchi oldingi zonada joylashganda hujumni uyushtirish variantlari 1-rasmda berilgan. Bunday hujumni uyushtirishning sezilarli kamchiliklaridan biri – bu hujumda oldingi qator o'yinchilaridan ikki kishining ishtirok etishi mumkinligidir. Lekin zamonaviy voleybolda himoya zonasidan tashkil qilinadigan hujum zarbalari ushbu kamchilikni deyarli bartaraf etgan desa bo'ladi.



**1-rasm.**

Hujumni uyushtirishda bog'lovchi o'yinchi orqa qatordan to'r oldiga chiqib ikkinchi to'pni uzatganda, hujum qilish va uning samarasini oshirish imkoniyati kengayadi. Bog'lovchi o'yinchi orqada joylashgan 1,5,6-zonalardan to'r oldiga chiqib, turli hujum kombinatsiyalarini tashkil qilinadi. Birinchi to'pni uzatishdan so'ng hujum qilish yoki aldab to'p tashlash (otkidka) hujum harakatlarini samarali hal qilishga imkon bersa-da, ammo bu usullarni bajarish uchun zarur sharoit (uzatilgan to'pning juda qulay bo'lishi) va hujumchidan katta malaka talab etiladi. Aldab to'p tashlaganda, hujumchi yoki bog'lovchi o'yinchi (oldingi zonada joylashgan vaqtdagina) sakrab hujum zarbasini bajarayotganday (imitatsiya) bo'lib, aldamchi harakatni amalga oshiradi.







Guruhli taktik harakat deganda ikki yoki undan ortiq o'yinchilarning hujum vazifasini hal qilishi tushuniladi. Guruhli taktik harakatlar quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Bog'lovchi o'yinchi oldingi qatorda bo'lganda, uning ishtirokida hujum uyushtirish;
2. Xuddi shunday, faqat bog'lovchi o'yinchi orqa qatorda joylashganda;
3. To'pni qabul qilish va hujumchi tomonidan ikkinchi to'pning zarba beruvchi hujumchiga yetkazib berilishi;
4. Hujumchining hujum zarbasiga taqlid qilish bilan aldamchi to'p tashlashni amalga oshirishi.

Har bir guruhli harakat oldindan kelishilgan va o'rgatilgan taktik kombinatsiyalar orqali bajariladi. Hujumchilar hujum harakatlarini amalga oshirishda quyidagi tartibda harakatlanadilar: harakat yo'nalishini o'zgartirmasdan (har kim o'z zonasida); harakat yo'nalishini o'zgartirib; chalkash harakat yo'nalishida. Yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha tashkil qilinadigan taktik kombinatsiyalarni ko'rib chiqamiz.

1. To'pni qabul qiluvchi uni 3-zonada joylashgan bog'lovchiga yetkazib beradi, o'z navbatida, bog'lovchi to'pni 4 yoki 2-zonaga (bosh orqasidan) uzatadi. Agarda bog'lovchi 2-zonada joylashgan bo'lsa, u to'pni 4 yoki 3-zonalarning biriga uzatadi. Ushbu kombinatsiyani bog'lovchi orqa zonadan oldingi zonaga chiqib to'p uzatishda ham qo'llashi mumkin. Bu kombinatsiyada asosiy vazifani 3-zonadagi o'yinchi bajaradi. U raqibda past, qisqa yoki tezlashib uchib boruvchi to'pni hujum qilinishi mumkin degan tasavvurni hosil qilishi kerak.
2. To'pni qabul qiluvchi uni 3-zonadagi bog'lovchi o'yinchiga yetkazib beradi. Bog'lovchi o'yinchi esa to'pni quyidagicha uzatib berishi mumkin: 4–3-zonalar oralig'iga qisqa zarba uchun; past trayektoriya bo'yicha o'z zonasiga; past trayektoriya bo'yicha bosh orqasiga; 3–2-zonalar oralig'iga qisqartirilgan masofa bo'yicha.





Hujumchilar zarba berish uchun ma'lum burchak asosida harakatlanadilar. Hujumchilarning shu tartibdagi bir qator harakatlari ma'lum ma'nodagi kombinatsiyalarning nomlanishiga sabab bo'ladi.

Bularga «eshelon» va «to'lqin» kombinatsiyalarini misol keltirish mumkin.

«To'lqin» kombinatsiyasida uchta o'yinchi – bog'lovchi va 3–4- zonalardagi hujumchi ishtirok etadi. 3-zonadagi o'yinchi past to'p uzatish (qisqa, uchishda) bilan bo'ladigan hujumni boshlab berish uchun yugurib keladi. To'p 4-zonadagi o'yinchiga, 4 va 3- zonalari oralig'iga uzatib beriladi. 3-zonadagi o'yinchi hujum zarbasiga taqlid qilib, raqibning to'siq qo'yuvchi o'yinchilarini chalg'itadi. Bu esa 4-zona o'yinchisining hujumni samarali yakunlashiga (to'siqsiz yoki to'siq qo'yish kechikkanligi bilan bog'liq) imkon yaratadi. Kelishuvga asosan to'p uzatish uzunligi o'zgartirib boriladi. Agarda to'pni qabul qilish 4-zonaga yaqin joyda sodir bo'lgan bo'lsa, «eshelon» kombinatsiyasini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratiladi. Bu holda 3-zonadagi o'yinchining harakati yuqoridagi kabi bo'ladi, 4-zonadagi o'yinchi yugurish yo'nalishini o'zgartirib, 3-zonadagi o'yinchining orqasiga o'tmoqchi bo'ladi, ammo bu harakatni bir temp keyinroq bajaradi. Ushbu kombinatsiyani to'p 2-zona yaqiniga uzatilgan bo'lsa, 3 va 2-zonalarda ham bajarish mumkin.


3. Chalkashma kesim harakatlanishlar bilan amalga oshiriladigan taktik kombinatsiyalarni bajarish yuqori tayyorgarlik va malaka talab etadi. Bularga «Krest» (asosiy), «Oldinga krest», «Orqaga krest» kombinatsiyalari kiradi. «Krest» hujumida 3 va 4- zonalardagi hujumchilar ishtirok etadi. 4-zonadagi hujumchi tezkor harakat bilan bog'lovchi o'yinchi yoniga past (qisqa, uchib) uzatilgan to'pga hujum zarbasini berish yoki taqlid qilish uchun boradi. 3-zonadagi o'yinchi bir oz keyinroq 4-zona o'yinchisining orqasiga o'tadi va hujumni yakunlaydi. To'p uzatish trayektoriyasi oldindan kelishib olinadi, ammo to'p uzatish o'rtachadan baland bo'lmasligi zarur, aks holda kombinatsiya o'z mohiyatini yo'qotadi.

«Oldinga krest» kombinatsiyasini 3-zona o'yinchisi boshlaydi, 2-zonadagi sherigi uning orqasiga o'tib, bir oz kechikib sakraydi va hujumni yakunlaydi.



«Orqaga krest» kombinatsiyasida esa harakatlanishni birinchi bo‘lib 2-zona o‘yinchisi boshlab beradi, 3-zona o‘yinchisi esa uning orqasidan 2-zonada hujum qilish uchun harakatlanadi. Bu variantdagi kombinatsiya birmuncha murakkabroq hisoblanadi.

Guruhli hujum harakatlari birinchi to‘p uzatishdan keyin ham amalga oshirilishi yuqorida bayon etilgan edi. Bunday hujum harakatlarini faqatgina birinchi to‘p sifatli qabul qilinganda (raqib jamoasi o‘z harakatlarini hujum bilan yakunlay olmasa, o‘yinga kiritilgan to‘p qiyinchilik tug‘dirmasa) amalga oshirish mumkin. Bunda hujum ikki xil variantda yakunlanishi mumkin. Birinchi variantda hujum zarbasi beriladi (2-rasm), ikkinchi variantda aldamchi to‘p tashlash amalga oshiriladi.



**2-rasm.**

Afsuski, yosh voleybolchilar bilan ishlaganda, taktik kombinatsiyalarni o‘rgatish va ularni o‘yin jarayonida qo‘llanilishiga kam e‘tibor beriladi. Taktik kombinatsiyalarni qo‘llashda quyidagi ikki holatdan kelib chiqish zarur:

1. Taktik kombinatsiyalarni qo‘llash aniq o‘yin sharoitidan kelib chiqishi kerak;
2. Kombinatsiyalar jamoaning texnik-taktik tayyorgarlik imkoniyatlariga asoslanishi kerak.

Yakka taktik harakatlar jamoa va guruhli o‘yin harakatlarining asosiy tarkibi bo‘lib hisoblanadi. Ular to‘psiz va to‘p bilan bo‘ladigan harakatlarga bo‘linadi. To‘psiz





harakatlarga to'pni o'yinga kiritish, to'p uzatish, hujum qilish uchun joy tanlash va jamoa, guruhli harakatlarga ko'ra mos harakatlanishlar kiradi.

Hujum zarbasi uchun to'p uzatishda o'yinchining harakatlariga quyidagilar kiradi:

- 1) bog'lovchi o'yinchi oldida turgan hujumchiga to'p uzatish;
- 2) bog'lovchi o'yinchi orqasida turgan hujumchiga to'p uzatish;
- 3) hujumchilarga bir me'yorda to'p uzatishni taqsimlash;
- 4) raqib jamoasining kuchsiz to'siq qo'yuvchisiga nisbatan to'p uzatish;
- 5) to'pni qabul qilish va o'yinning taktik rejasidan kelib chiqib to'p uzatish trayektoriyasini belgilash;
- 6) to'pni aldamchi harakatlar bilan taqlid tarzida uzatishlar:

Oldinga to'p uzatayotganday bo'lib, uni raqib maydonchasiga tashlash; oldinga to'p uzatgandek ko'rsatib, bosh orqasiga to'p uzatish; bosh orqasiga to'p uzatishni ko'rsatib oldinga to'p uzatish.

To'pni o'yinga kiritishda quyidagilar asosiy taktik harakatlar hisoblanadi:

- 1) to'pni kuch jihatiga ko'ra navbatlashtirish;
- 2) to'pni raqib jamoasining samarasiz qabul qiluvchi o'yinchisi tomon yo'naltirish;
- 3) to'pni raqibning asosiy hujumchisiga yo'llash;
- 4) to'pni yangi tushgan o'yinchiga yo'llash;
- 5) to'pni orqa zonadan chiqayotgan bog'lovchi o'yinchiga yo'llash;
- 6) to'pni o'yinchilar orasiga yo'llash;
- 7) to'pni maydonning bo'sh va qiyin qabul qilinadigan joylariga yo'llash.

Hujumdagi va hujum zarbalarini berishdagi asosiy taktik harakatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) hujum qilish usulini tanlash;
- 2) hujum zarbasini va aldamchi harakatlarni imitatsiya qilish;
- 3) o'yin vaziyatidan kelib chiqib, hujum zarbalarini berish usullarini navbatlashtirish;
- 4) to'siq ustidan zarba berish, to'siq uchun ko'tarilgan qo'llar orasidan, to'pni to'siqdan maydon chekkasiga chiqarib yuborishni mo'ljallab zarba berish;





5) hujum zarbasini imitatsiya qilib, sakrab to‘p uzatish;

6) sakrab to‘p uzatishni imitatsiya qilib aldamchi harakat bilan to‘pni raqib maydoniga tashlash.

Voleybolchilarni xujumda muvaffaqiyatga erishishida murabbiy tomonidan o‘yinchilarga motivatsiyani (ustanovka) samarali tashkil etishi muxim xisoblanadi.

### **XULOSA**

Ko‘p yillik amaliy faoliyatimiz natijalari xujumda g‘alabaga erishishning yana bir muhim omili jamoadagi har bir o‘yinchining maqsadi jamoaning umumiy maqsadi bilan uzviy bog‘liqlikda, yagonalikda ekanligini ko‘rsatadi.

Ayrim hollarda jamoada sportchilari o‘rtasida o‘zaro ijobiy munosabatlarning buzilishi oqibatida paydo bo‘ladigan noxushliklar o‘yinchilarda turli salbiy holatlarni vujudga keltiradi: ularda bir-biriga ishonchsizlik, bir-birining o‘yinidan qoniqmaslik, adolatsizlik, tartibsizlik kabi salbiy munosabatlar paydo bo‘ladi. Natijada jamoa o‘yinchilari ketma-ket mag‘lubiyatga uchrayveradi, o‘yinning sifati pasayadi, o‘yinchilar boshqa jamoalarga o‘tib ketishga majbur bo‘ladilar. Agar sport jamoalarida ruhshunos lavozimi joriy etilib, uning faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, bunday salbiy holatlarning oldi olingan yoki bunday noxushliklarga barham berilgan bo‘lar edi.

Sportchilar bilan har xil miqyosidagi musobaqalarda ishlash tajribasi shuni ko‘rsatdiki, maqsadga erishish vositalarga urg‘u bermasdan, sportchining ongi natijaga yo‘naltirilsa, maqsadga erishishda to‘siq hosil bo‘ladi.

Sportchining xulq-atvori va psixikasiga ta‘sir etadigan har xil usullarni ehtiyotkorlik bilan, ularga moslashtirib qo‘llash lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vaynbaum YA. S. Gigiena fizicheskogo vospitaniya i sporta. Uchebnik. Moskva. 2002.
2. M.B.Ibragimov. Voleybol tibbiyoti. O‘quv qo‘llanma. Buxoro “Durdona” 2018 y.
3. Айрапетянц Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры. //монография. – Т.: Ибн





Сино, 1991.

4. Aizman R.I., Lysova N.F. Yosh fiziologiyasi: darslik. nafaqa . -Novosibirsk: Ed. NGPU, 2010.

5. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya: darslik. / G.M. Andreeva. - Minsk: Aspect Press, 2001.

6. Gordon S.M. Sport mashg'ulotlari: ilmiy va uslubiy qo'llanma / S.M. Gordon.- M.: Jismoniy madaniyat, 2008.

7. Айрапетьянц Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры. // Монография. Т.: Ибн Сино, 1991.

8. Айрапетьянц Л.Р. Волейбол. // Учебник для высших учебных заведений. Т.: Zar qalam. 2006.

9. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol. // Oliy o'quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma. Т.:2009.

10. Беляев А.В. Обучение тактике игры в волейбол и её совершенствование. //Методическое пособие. М.: Олимпия. Человек., 2008.

